


Iste'mol bozori

(2020-yil yanvar-mart*)

Chakana savdo aylanmasi 2020-yilning yanvar-mart oylarida 1656,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning (1394,2 mlrd. so'm) shu davriga nisbatan 6,1 % ni oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 12,7 % ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,3 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi




* *dastlabki ma'lumot*



Jami chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi
(2020-yil yanvar-aprel)


	2019-yil savdo hajmi (mlrd. so'm)	Ulushi (%)	2020-yil savdo hajmi (mlrd. so'm)	Ulushi (%)	O'sish sur'ati (%)
Jami chakana savdo tovar aylanmasi	1394,2	100,0	1656,1	100,0	106,6
Yirik korxonalar	151,1	11,0	209,8	12,9	124,4
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	1243,1	89,0	1446,3	87,1	104,4

Jami chakana savdo tovar aylanmasi (mlrd. so'm)



2020-yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)


(ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda)



Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo aylanmasi hajmida 2019-yil yanvar-mart oylariga nisbatan sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.

Qayd etish joizki, Jizzax shahri (400,4 mlrd. so'm), Zomin (304,2 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (211,8 mlrd. so'm) va Baxmal (199,1 mlrd. so'm) tumanlari viloyat chakana savdo aylanmasi hajmining o'zgarishiga katta hissa qo'shgan hududlar hisoblanadi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasining o'zgarish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan)




Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo aylanmasida 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'zgarish sur'atlari kuzatildi.

Xususan, nisbatan yuqoriroq o'zgarish sur'atlari Baxmal (119,1 mlrd. so'm, 8,5 % ni), Sharof Rashidov (211,8 mlrd. so'm, 0,8 % ni), Paxtakor (72,8 mlrd. so'm, 5,6 % ni), Do'stlik (60,9 mlrd. so'm, 5,4 % ni), Mirzacho'l (65,9 mlrd. so'm, 91,6 % ni), Zomin (304,2 mlrd. so'm, 5,2 % ni), Forish (71,5 mlrd. so'm, 6,2 % ni) tumanlari va Jizzax shaxri (400,0 mlrd. so'm, 6,2 % ni) tashkil etdi.

O'zgarish sur'atlari nisbatan yuqori bo'lmagan hududlar Arnasoy (43,1 mlrd. so'm, 4,3 % ni), va Yangiobod (19,2 mlrd. so'm, 4,1 % ni) tumanlari hisoblanadi.


Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Jizzax shahri 24,2 % bilan viloyatda birinchi o'rinni egallab turibdi va Zomin (18,4 %, ikkinchi o'rin), Sharof Rashidov (12,8 %, uchinchi o'rin) hamda Baxmal (12,0 %, to'rtinchi o'rin) tumanlari o'z ko'rsatkichlari bilan chakana savdo hajmi o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasi hajmida nisbatan kam ulushga ega bo'lgan Mirzacho'l (3,0 %, o'ninchi o'rin), Arnasoy (2,6 %, o'n birinchi o'rin), Zafarobod (2,1 %, o'n ikkinchi o'rin) va Yangiobod (1,2 %, o'n uchinchi o'rin) tumanlari pastki o'rinlarni egallab kelmoqda.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (ming soʻmda)



Umumiy ovqatlanish korxonalarini qoʻshgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,9 % (1 195,4 ming soʻm) ni tashkil etdi. (2019 yil yanvar-mart oylarida 1 028,6 ming soʻmni tashkil qilgan edi).


Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hududlar kesimida



Oʻrtacha jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori koʻrsatgichlari Jizzax shahri (2 249,6 ming soʻm), Zomin (1 856,2 ming soʻm) Sharof Rashidov (958,1 ming soʻm) va Baxmal tumanlarida (1 274,8 ming soʻm) kuzatildi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi (mln. so'm)



Viloyatda umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2020-yilning yanvar-mart oylarida 26 850,5 mln. so'mni tashkil etib, 2019-yil (26597,0 mln. so'm) ning shu davriga nisbatan 7,9 % ga kamaygan. Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi kamayishiga mart oyida yurtimizda aniqlangan "Covid-19" epidemiyasining oldini olish maqsadida joriy etilgan karantin sabab bo'ldi.




Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi umumiy hajmida eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etgan hududlar Jizzax shahri (12 038,7 mln. so'm), Sharof Rashidov (4 233,3 mln. so'm) hamda Forish (2 590,2 mln. so'm) tumanlari hisoblanadi. Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan barcha hududlarda kamayish ro'y berganligini kuzatish mumkin.



Umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi (mln. so'm)




Umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasining hududlar kesimida o'zgarish sur'ati, % da



Hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan Jizzax shahrida (92,3 %) va G'allaorol (93,4 %), Forish (93,4 %), Mirzacho'l (93,7 %), tumanlarida sezilarli o'zgarish kuzatildi.

Jami chakana savdo aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan 4,0 % ni tashkil etdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 87,3 % ini tashkil qildi.

Viloyatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari chakana tovar aylanmasi hajmi 1446,3 mlrd. so'mini tashkil etdi. Shundan 1052,7 mlrd. so'mini uyushmagan savdo va norasmiy soha tashkil qildi.

Norasmiy soha va uyushmagan savdoning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 63,6 % ni tashkil etdi.




Ulgurji tovar aylanmasi

2020-yilning yanvar-mart oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 244,2 mlrd. so'mni yoki 2019-yilning shu davriga nisbatan 98,7 % ni tashkil etdi. Hududlar miqyosida olib qaralganda, ulgurji tovar aylanmasida barcha hududlarda 2019-yilning shu davriga nisbatan kamayish kuzatildi.

	Ulgurji savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati	440,6	86,8
<i>shahar:</i>		
Jizzax sh.	125,8	80,2
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	9,1	59,5
Baxmal	27,6	91,9
G'allaorol	12,8	95,0
Sharof Rashidov	78,4	94,0
Do'stlik	35,4	97,5
Zomin	51,3	95,8
Zarbdor	30,1	92,3
Zafarobod	15,4	101,9
Mirzacho'l	11,8	58,3
Paxtakor	12,9	62,8
Forish	13,9	98,8
Yangiobod	16,2	98,8

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulgurji savdodagi ulushi, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan 99,0 % ni tashkil etib, 308,6 mlrd. so'mga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 70,0 % ni tashkil qildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel: (72) 221-51-26